



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Tursunova Nigora

O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti xorijiy tillar va gumanitar fanlar fakulteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi birinchi bosqich magistranti

**SO'Z MA'NOSI TALQINLARI HAQIDA
(qiyyosiy aspektida)**

Annotatsiya. Tadqiqotlardan ma'lumki, insoniyat jamiyatida til munosabatlardan ko'prigi, aloqa-aratashuv jarayonini yuzaga keltirish vazifalarini bajaradi. Jamiyat rivojlanib borar ekan, til ham o'z o'rniда taraqqiy etmay qolmaydi. Chunonchi qadimda ajdodlarimiz foydalangan til bizning davrimizga kelib o'z mohiyatini o'zgartirmagan holda, umuman, o'zgacha shaklga ega bo'lib bordi.

Kalit so'zlar: so'z, leksema, til taraqqiyoti, sistem-struktur yondashuv.

Tilning asosiy quroli, kishilik jamiyatining o'zaro fikr almashinuv vositasi bu - so'zdir. Binobarin, so'zga bugungi kunga qadar 300 dan ortiq ta'rif berilgan bo'lsada, bu murakkab til birligiga tom ma'noda to'liq ta'rif berilib, mohiyati yoritilgan emas. Chunonchi, L.V.Shcherba, L.Brumfieldlarning qarashlari bo'yicha gapni tashkil etuvchi eng kichik birlik so'zdir. Masalan: *Bugun men kutubxonaga kiraman* gapining tashkil etuvchilari bugun, men, kutubxona, kiraman so'zlaridan tashkil topgan. Ba'zida bir so'z bilan ham butun boshli bir gap, yoinki jumla orqali ifodalayotgan fikrimizni bayon qilishimiz mumkin. Masalan, *U bir mastona chayqalib turgan shogirdiga, bir hayratda qotib qolgan Piri Bukriyga, bir malikul*



*sharobga qaradi, so'ng, hamma gapga tushundi chamasi: -O, tentak, tentak! – dedi kuyinib.*¹ birgina “tentak so‘zi orqali so‘zlovchining ruhiy ahvoli, afsus, nadomat chekayotganligini o‘quvchi anglab olishi mumkin.

Boduen de Kurtene, A.Meye, E.Sepirlar so‘zga eng kichik sintaktik birlik sifatida qaraydilar va grammatik jihatdan yondashadilar. So‘zni tilning eng kichik ma’no birligi deb izohlagan A.Reformaskiy, L.Elmslevlarning ham fikrlarida jon bor, masalan, *Sultonning xayolini Beruniyning g‘amgin ovozi bo‘ldi*,² gapidagi *xayol* so‘zini olaylik u yaxlit bir butunlikdir. Tarkibidagi biror tovushni almashtirsak yoki tushirib qoldirsak, umuman boshqacha ma’no ifodalaydi. Xayol – o‘ylash, fikrlash ma’nosini bildirsa, bu so‘zni shak jihatdan turli qismlargacha ajratsak, boshqa so‘zga aylanadi va o‘zgacha ma’no ifodalaydi. Xa-xa-xa – undov so‘z xaholab kulishni ifodalaydi. Xa-xa-xa, shamol sizdan o‘chimni oldi, qani gapiring! – dedi Ra’no Anvarga (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon). Xayol so‘zining ikkinchi bo‘g’inini ham alohida olsak, Yol – ot, xachir singari hayvonlarning bo‘ynidan chiqadigan uzun qil tutamlari. Gapni tashkil etuvchi eng kichik til birligi so‘zdir.

V.V.Vinogradov, K.Byuller, A.Meyelar so‘zni fonetik, grammatik va semantik belgilar jamlangan til birligi deb ta’riflaydilar. So‘zda tilning ifoda (tovush jihat) va mazmun (ma’no tomoni), grammatik (morphologik va sintaktik) jihatlari namoyon bo‘ladi.

E.M.Galkina-Fedoruk, V.V.Vinogradov, V.Doroshevskiyalar so‘z — bu obyektiv borliqning ifodasi deya o‘z munosabatlarini bildiradilar bunda asosan so‘zning semantik tomoniga e’tibor berilgan. Nutqning mustaqil va maqsadli elementi deya so‘zga ta’rif bergen olimlarimiz F.Fortunatov, J.Vandries, V.V.Vinogradovlardir. Bu ta’riflarda so‘z o‘zida fonetik, semantik va grammatik belgilarni aks ettirishi, borliqdagi voqeal-hodisa va narsa buyumlarni ifodalashi, uning mustaqil va bir butun nutq elementi ekanligi ko‘rsatiladi.

Berilgan ta’riflarning har biri so‘zning ma’lum bir qirrasini ochib berishga xizmat qiladi, lekin uning barcha belgilarini o‘zida jamlay olmagan.

¹ Odil Yoqubov. Ko‘hna dunyo. – T.: Sharq.2018.- B-20.

² Odil Yoqubov Ko‘hna dunyo. – T.: Sharq.2018.- B-45.



So‘z va uning ma’nolari, vazifasi, jamiyatdagi tutgan o‘rni haqida o‘zbek tilshunosligi tarixida uzoq o‘tmishdan to‘xtalib kelinganligi bizga sir emas. Xususan, Abu Nasr Forobiyning “Mohiyat-hodisa dialektikasi haqida”, “Fozil odamlar shahri”, Abu Rayhon Beruniyning “Saydana”, Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk”, muallifi noma’lum bo‘lgan “Turkiy tillar haqida noyob tuhfa”, A.Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarlarini misol qilib keltirish mumkin. Ammo o‘zbek tilshunosligida leksikologiya tilshunoslikning tarkibiy qismi, tilshunoslikda leksik sathning o‘rni va ahamiyati beqiyos ekanligi, leksik birliklarni o‘rganuvchi tilshunoslikning alohida bo‘limi mavjudligi singari masalalar XX asrning o‘rtalaridan boshlab shakllandi.

O‘zbek tili leksikasining shakllanishida Faxri Kamolning “Hozirgi zamon o‘zbek tili kursidan materiallar” rukni ostida chop etilgan “O‘zbek tili leksikasi” va Ya.D.Pinxasovning “Hozirgi o‘zbek tili leksikasi” risolalari hamda “Hozirgi zamon o‘zbek tili kursidan materiallar” rukni bilan e’lon qilingan barcha risolalarni o‘zida jamlagan “Hozirgi zamon o‘zbek tili ” asari katta ahamiyatga ega bo‘ldi³. Bu asarda leksikologiya tilshunoslikning alohida bir bo‘limi ekanligi, shu bilan bir qatorda uning o‘rganish obyekti, maqsad va vazifalari, boshqa sathlar bilan aloqasi, ular o‘rtasidagi munosabat, so‘z, narsa va tushunchaning uzviy bog‘liqligi keng yoritildi.

Fikr ifodalashimizda so‘z asosiy qurolimizdir. Fikrni esa gap ifodalaydi, gap so‘zlardan tashkil topadi. Gap va so‘z bir-biri bilan uzviy bog‘langan, ular o‘rtasida dialektik qonuniyat mavjud. So‘zning ikki tomoni mavjuddir, so‘zning ma’nosi – birinchi tomoni bo‘lsa, ikkinchi tomoni esa tovush tomonidir. Har bir so‘z shu ikki tomonning mavjudligi va mutanosibligidan iborat bo‘lib, bu uning ichki va tashqi tomonidir. So‘z sistematik va grammatik butunlikdan iborat. Shu jihatni bilan so‘z leksikologiyaning ham, grammatikaning ham o‘rganish obyektidir.

Leksikologiya so‘zning ichki ma’zmun tomonini o‘rgansa, grammatika esa so‘zning tuzilish, tarkib, turkumga bo‘linish tomonlarini o‘rganadi. O‘z navbatida, ular biri-ikkinchisini taqozo qiladi.

³ Хозирги замон ўзбек тили. Т., ЎзФАН, 1957.



Shuning uchun ham Faxri Kamol bu haqida quyidagilarni yozadi: “Gapni tashkil etgan har bir so‘z o‘zining asosiy leksik ma’nosidan tashqari kamida bir yoki ikki grammatik vazifani ado etadi”.⁴ Masalan, daraxtlar gulladi gapini olaylik bunda daraxtlar so‘zi leksik jihatdan o‘simplik turini bildirsa, gulladi so‘zi esa o’sha daraxtlarda gullahash jarayoni sodir bo‘lganligini, gulga kirganligini bildiradi. Gapni tashkil qilgan har bir so‘z leksik ma’nosidan tashqari, grammatik vazifani ham bajaradi. Jumladan, daraxtlar – predmet nomini bildiradi, ot so‘z turkumi, bosh kelishikda, son jihatdan -lar ko‘plikni ifodalaydi; gulladi – harakatni bildiradi, holat fe’li, o‘tgan zamon, birlik, uchinchi shaxs, o‘timsiz, aniqlik maylini bildirmoqda. Bu kabi kelishik, shaxs-son, zamon, mayl, harakatning o‘timli-o‘timsizligi so‘zlarining grammatik xususiyati sanaladi.

XX asrning 60-yillarida o‘zbek tili leksikologiyasida ham bir qadar o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Xususan, so‘zning uzual va kontekstual ma’nolari farqlandi. So‘zlar o‘z ma’nosini bilan cheklanib qolmay, turli matnda turlichal ma’no va ma’no ottenkalariga ega ekanligi haqida fikr va mulohazalar vujudga keldi.

O‘tgan asrning 70-80-yillaridan boshlab o‘zbek tilshunosligiga sistemaviy-struktur tilshunoslik qo‘lga kiritgan yutuqlar, uning tadqiq etish metodlari kirib keldi. O‘zbek tilshunosligida ham uzviy tahlil metodlari qo‘llanila boshlandi. Bu, birinchi navbatda, leksikologiyada namoyon bo‘ldi. Natijada, o‘zbek tili leksikologiyasi tavsifiy bosqichdan yangi bosqichga – nazariy bosqichga leksikani ma’lum leksik-semantik guruhlardan (LSG) tashkil topgan butunlik, leksik birliklarni muayyan ma’no elementlarining munosabatidan tashkil topgan tizim sifatida o‘rganish bosqichiga ko‘tarila bordi. Bu bilan o‘zbek tavsifiy leksikologiyasidan sistemaviy (nazariy) leksikologiyaga o‘tila boshlandi. Ana shu jarayonni prof.Sh.U.Rahmatullayev va uning shogirdi I.Qo‘chqortoyevlar boshlab berdilar.⁵

Shu davrdan boshlab o‘zbek tili leksikologiyasida ikki yo‘nalish paydo bo‘lib, ular o‘zbek tavsifiy leksikologiyasi va sistemaviy leksikologiya yo‘nalishlaridir. U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevlar hammuallifligida nashr etilgan

⁴ Хозирги замон ўзбек тили. Т., ЎзФАН, 1957.

⁵ Абдухамид Нурмонов Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Т.: Фан. 2002. – Б. 186.



“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobi bu ikki yo‘nalish o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajardi.

Aytish joizki, olimlar mazkur kitobda tavsifiy leksikologiya an’analarini takomillashtirish barobarida sistemaviy leksikologiyaning asosiy belgilaridan bo‘lgan uzviy tahlil metodini ham joriy etishdi.

Leksik ma’no semantik qismlarga – semalarga ajratib o‘rganiladi. Leksema bir necha semalar munosabatidan tashkil topgan butunlik. Bu semalar ichida ma’lum bir sema leksemalarni muayyan leksik semantik guruhlarga birlashtirishga xizmat qilishini va u birlashtiruvchi (integral) sema hisoblanishini, ayni shu sema hajmi kattaroq guruhdan ushbu leksik-semantik guruhnini ajratib olishda farqlovchi (defferensial) sema bo‘lib xizmat qiladi.⁶ Semik tahlilda leksemani bir necha qismlarga parchalab, boshqa leksemalar bilan bir guruhga mansubligi va farqlash uchun ham omil bo‘ladigan tomonlari tahlil qilinadi. Masalan, *singil* leksemasini olaylik, bunda quyidagi holat kuzatiladi: 1. “inson”, 2. “ayol”, 3. “tug‘ishgan” yoki “o‘gay”, 4. “yoshi kichik”.

Ushbu semalarning bir umumiyligi guruhdan boshqa bir kichikroq guruhga ajtatiib olinayotganligining guvohi bo‘lamiz.

H.A.Jamolxonovning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida ta’kidlanishicha: “Leksik ma’noning semantik tarkibi atash, ifoda va vazifa semalaridan iborat bo‘ladi”. H.Ne’matov va R.Rasulovlar “O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari”da ta’kidlashicha: “So‘z semantik strukturasida quyidagi semalar mavjud: 1) atash (denotativ) ma`nolari; 2) ifoda (konnotativ) ma`nolar; 3) vazifa (funkstional) ma`nolar”. B.Mengliyev va A.Sobirovlarning doktorlik tadqiqotlarida ham xuddi shu tasnifga amal qilinadi.

Ko‘rinadiki, sememaning mazmuniy tuzilishini tashkil etuvchi qismlar — semalar borasida turli fikrlar mavjud ekan.⁷

⁶ Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги узбек адабий тили. II нашр. Т., «Ўқитувчи», 1975; III нашр, Т., «Ўқитувчи», 1992, 67-бет

⁷ I.Yo‘ldoshev, S.Muhamedova, Z.Xolmanova, R.Majidova, Sh.Sultonova. Darslik- Mutaxassislikka kirish (Tilshunoslikka kirish) — Т.: «Barkamol fayz media», 2018.



So'zning leksik- semantik xususiyati, asosan, nutq jarayonida oydinlashadi. Chunki kommunikativ vaziyatda so'zning qaysi bir ma'nosiga urg'u berilayotganligi aniqlashadi. Biz o'z turmushimizda ulardan eng maqbulini tanlab olamiz va unumli foydalanamiz.

Keltirilganlarga asoslanib, so'z ma'no qirralarining hech birini inkor eta olmaymiz. Til leksikasida jamiyat hayoti, qatlamlanishi (yosh, jins, sohalar), ijtimoiy va sotsial hayot o'z aksini topadi. Tilda foydalanuvchilarining qaysi hududga mansubligi hududiy sifatlar o'z ifodasini topadi. Tasnif va qarashlarning barchasi zamirida so'z va uning ma'no-vazifa bajarish xususiyatini qamrab olishga va qaysidir jihatni yoritishga harakat qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yoqubov O. Ko'hna dunyo. – T.: Sharq.2018.- B-20.
2. Ҳозирги замон ўзбек тили. – Т.: ЎзФАН, 1957.
3. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Т.: Фан. 2002. – Б. 186.
4. Yo'ldoshev I., Muhamedova S., Xolmanova Z., Majidova R., Sultonova Sh. Darslik. Mutaxassislikka kirish (Tilshunoslikka kirish) — Т.: «Barkamol fayz media», 2018.
5. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. II нашр. – Т.: «Ўқитувчи», 1975; III нашр, Т., «Ўқитувчи», 1992. – Б. 67.